TARIXIY TIL ALOQALARI VA ULARNING O'ZBEK TILI TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

Tangirov Azizbek Azadovich
Oriental universiteti, Tillar-2 kafedrasi
Yusupboyeva Ziynatjon Xayrulla qizi
Oriental universiteti Filologiya va tillarni o`qitish fakulteti ingliz tili yo`nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarixiy tillardan bo`lgan arab va fors tillarining o`zbek tiliga ta'siri va ulardan o`zlashgan so'zlar misollar orqali yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar: *o`zbek tili, tarixiy til aloqalar, arab tili, fors tili, o`zlashma so`zlar.*

Til rivoji keskin sakrash yoki inqilobiy yo`l bilan emas, balki bosqichma-bosqich, tabiiy evolutsiya asosida yuzaga keladi. Har bir til o`zining tarixiy taraqqiyoti davomida lug`at tarkibini ichki imkoniyatlari hamda tashqi omillar ta`sirida boyitib boradi. Til rivojlanishining ushbu qonuniyati o`zbek tiliga ham xosdir.

Dunyo tilshunoslarining ijtimoiy-tarixiy hamda psixologik nuqtayi nazardan yondashilgan tadqiqotlari orqali turli tarixiy davrlarda o`zbek tili boshqa ko`plab tillar bilan o`zaro aloqada bo`lganligini bilishimiz mumkin. Natijada o`zaro ***so`z almashish*** hodisasi kuzatilgan. Shu bois, o`zbek adabiy tilining lug`at tarkibida qadimgi *uyg`ur, so`g`d, xitoy, arab, mo`g`ul, fors-tojik* kabi tillarning elementlariga duch kelishimiz mumkun.

O‘zbek tili leksikasida arabcha birliklarning uchrashi tarixda O‘rta Osiyo hududining arablar tomonidan zabt etilishi va bu jarayon natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy hamda madaniy o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Mazkur davrda yuz bergan siyosiy va ma'naviy jarayonlar natijasida arab tili hamda arab madaniyati mahalliy xalqlarning ilmiy, diniy va madaniy hayotiga kirib keldi. Bu holat arab tilining keng yoyilishiga sabab bo‘ldi. Natijada arab tilida yozish, o‘qish, ilmiy muloqot qilish va

diniy marosimlarni bajarish zarurati paydo bo‘lib, mahalliy aholining ma’lum darajada arab tilini o‘zlashtirishiga olib keldi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, arab tilining o‘zbek tiliga ta’siri ayrim xalqlar tillaridagi kabi faqat diniy soha bilan cheklanib qolmagan. Masalan, Dog‘iston xalqlarining ayrim tillarida arab tili asosan islom dini bilan bog‘liq so‘zlar orqali kirib kelgan bo‘lsa, O‘rta Osiyo hududida u ilm-fan, davlat boshqaruvi va badiiy adabiyot tili sifatida ham muhim rol o‘ynagan. Shu sababli o‘sha davr ziyolilari va olimlari o‘z ona tili bilan bir qatorda arab tilidan ham erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lganlar.

Arabcha so‘zlarning o‘zbek tiliga kirib kelishida yana bir muhim omil arab kitobat va yozma madaniyati an’analarining turkiy xalqlar hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatgani bilan bog‘liqdir. Ayniqsa, bu jarayon o‘zbek xalqi madaniyati va ilmiy muhitida yaqqol namoyon bo‘lgan. Arab yozuvi va kitob yaratish an’analari keng tarqalishi natijasida u bilan bog‘liq ko‘plab termin va atamalar ham o‘zbek tiliga kirib kela boshlagan.

Tarixiy sharoit arab kitobatchilik madaniyati bilan birga unga oid so‘z va tushunchalarning o‘zbek tilida keng qo‘llanishiga qulay imkoniyat yaratdi. Shu sababli yozuv, ilm-fan va madaniyat bilan bog‘liq ko‘plab arabcha terminlar mahalliy tilga singib ketdi.

Ba’zi holatlarda esa ilgari o‘zbek tilida faol ishlatilgan ayrim turkiy so‘zlarning o‘rnini ham arab tilidan o‘zlashgan birliklar egallay boshladi. Natijada arabcha unsurlar asta-sekin til lug‘at tarkibining muhim qismiga aylanib bordi.

Misol uchun, qadimgi turkiy tilida *“yozuv”, “xat”, “maktub”, “kitob”* kabi ma`nolarni ifodalasshda asli turkiy bolgan **bitig** termini keng qo`llangan. Bundan tashqari, *kitob* (كتاب), *maktab* (مكتب), *tarix* (تاريخ), *sabr* (صبر), *adab* (أدب) va shunga o`xshash ko`plab so`zlarni ham arab tilidan o`zlashib xalqimiz tiliga singib ketgan deb ayta olamiz.

O‘zbek xalqi qadimdan eroniy tillarda so‘zlashuvchi xalqlar bilan yaqin aloqada yashab kelgan. Shu sababli ularning madaniy va ijtimoiy hayotida ko‘plab umumiy jihatlar shakllangan. Jamiyatdagi o‘zgarishlar, odatda, tilga ham ta’sir

ko‘rsatadi. Natijada o‘zbek tili ham fors-tojik tili bilan uzoq tarixiy aloqalar davomida sezilarli darajada boyigan.

IX–X asrlarda hukmronlik qilgan Somoniylar davrida arab tili o‘rniga forsiy dari adabiy til sifatida keng tarqaldi. Bu til Xuroson hududida yashagan tojiklarning so‘zlashuv tiliga asoslangan bo‘lib, keyinchalik ilm-fan, adabiyot va rasmiy yozishmalar tiliga aylandi.

Tilshunoslikda tillar o‘rtasidagi ta’sir genetik yaqinlik yoki so‘z o‘zlashtirish orqali yuz beradi. O‘zbek tili fors-tojik tilidan har ikkala yo‘l orqali ham ta’sirlangan. Shu sababli hozirgi o‘zbek tili leksikasida forscha-tojikcha so‘zlar ko‘p bo‘lib, ular miqdor jihatidan turkiy so‘zlardan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Masalan, *daftar, siyoh, fihrast, noma, ro‘znoma, nishon, tasvir* kabi so‘zlar bunga misol bo‘la oladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili tarixiy taraqqiyot jarayonida turli xalqlar va tillar bilan uzviy aloqada rivojlangan. Ayniqsa, arab va fors-tojik tillari o‘zbek tilining lug‘at boyligining shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Ushbu tillar orqali o‘zbek tiliga ko‘plab diniy, ilmiy, madaniy hamda maishiy so‘zlar kirib kelgan va ular tilimizda faol qo‘llanib kelmoqda. Shunday qilib, tarixiy til aloqalari o‘zbek tilining boyishi, rivojlanishi va mukammallashishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1) I.Yo`ldoshev, S.Muhammedova, Z.Xolmanova, R.Majidova, SH.Sultonova “Mutaxassislikka kirish” (Tilshuboslikka kirish) Toshkent-2020.

2) Oxford Arabic-English Dictionary. (2014). Oxford University Press.

3) G‘afurov, N. (2021). O‘zbek tiliga arab tilining ta’siri: leksik va semantik tahlil.